



HUDUDLARDA BALIQCHILIK TARMOG'IDA "BALIQCHILIK KLASTERI"NI SHAKLLANTIRISH ORQALI INNOVATSION BOSHQARUV MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH

Beglayev Uchqun Xurramovich,

Toshkent davlat agrar universiteti Agrobiznesni boshqarish va logistika kafedrasida dotsenti, i.f.f.d. (PhD).

E-mail: beglayevuchqun@gmail.com

ORCID:0009-0008-9491-6613

MAQOLA HAQIDA

Qabul qilindi: 9-fevral 2026-yil

Tasdiqlandi: 11-fevral 2026-yil

Jurnal soni: 17-B

Maqola raqami: 86

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v17i.1549>

KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/ KEYWORDS

klaster, tuzilma, bozor iqtisodiyoti, klasterlarni boshqarish, boshqaruv usuli, turli mulkchilik shakli, samaradorlik, ishlab chiqarish, tabiiy havza, texnologiya, baliq mahsulotlari, innovatsiya

ANNOTATSIYA

Maqolada turli mulkchilik shaklidagi baliqchilik subyektlarining zamonaviy shakllaridan biri baliqchilik klasterlarini tashkil etish va ularning boshqaruv mexanizmlarining asosiy mezonlari qayd etilgan. Shuningdek, klasterlarning sohada tutgan o'rni va ularni rivojlantirish yo'llari bo'yicha tavsiyalar keltirib o'tilgan. Tadqiqot davomida hududlarning tabiiy-iqlim sharoiti, resurs salohiyati hamda infratuzilma imkoniyatlari asosida baliqchilik klasterlarini shakllantirishning ustuvor yo'nalishlari tahlil qilingan.

Bundan tashqari, innovatsion boshqaruv mexanizmlarini joriy etish orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, mahsulot sifatini yaxshilash va ichki hamda tashqi bozorlarda raqobatbardoshlikni kuchaytirish masalalari yoritilgan. Maqolada klaster ishtirokchilari o'rtasidagi kooperatsiya aloqalarini mustahkamlash, logistika tizimini rivojlantirish, raqamli texnologiyalarni keng qo'llash hamda investitsion jozibadorlikni oshirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kirish. Zamonaviy boshqaruv shakllarini tanlash hamda uni ishlab chiqarishga joriy etish sohani sezilarli darajada yangilash imkonini beradi. Shu boisdan tadqiqot ishimizda baliqchilik klasterini shakllantirish orqali innovatsion boshqaruv usulini uning mezonlari va tuzilmasini to'g'ri tashkil etilishini ko'rib chiqdik. Natijada klasterlarda baliq mahsulotlarini saqlash sohasini rivojlantirish, zamonaviy saqlash omborxonalarini barpo etish, ularni jihozlashda zamonaviy texnikalar va texnologiyalardan keng foydalanish, yetishtirilgan baliq mahsulotlarini nobudgarchiligining oldini olish va sifatining buzilishini kamaytirish orqali turli mulkchilik shaklidagi baliqchilik subyektlariga va xizmat ko'rsatish sohasi korxonalariga katta miqdorda foyda olish imkoniyati yaratiladi.


Adabiyotlar tahlili va metodlar. Baliqchilik xo'jaliklarini barqaror rivojlantirish ularni tizimli va samarali boshqarish mexanizmini takomillashtirish, sohani intensiv va innovatsion texnologiyalar asosida rivojlantirish muammolari bo'yicha mamlakatimiz va xorijiy davlatlar iqtisodchi olimlari turli yo'nalishda ilmiy-tadqiqot ishlari olib borishgan. Jumladan, xorijiy davlatlar olimlari: F.Berkis, R.Maxon, M.Solomon, R.Xilborn, P.Daniel, F.Rayner, F.D.Jonston, A.S.Tommas, S.Hammerland, K.Greer, J.Mattias baliqchilikni barqaror rivojlantirish va boshqarishda MDH davlatlari olimlaridan: S.I.Kurdyukov, A.K.Bogeruk, Dj.Riter, O.V.Kuznesova, N.V.Alesina, R.R.Galuliniya, J.M.Gordon, V.K.Kiselyov, P.A.Dushin, A.A.Tarassenko, V.S. Kazancheva, D.Sh.Yakubova [6, 236-240] va boshqalar ilmiy izlanishlar olib borgan, hamda bu boradagi ayrim masalalar mamlakatimiz agrar iqtisodchi olimlaridan: D.R.Shoximardonov [7], [8, 60], S.S.G'ulomov, R.X.Ergashev [9, 394], I.O.Yunusov va boshqa olimlarning ilmiy asarlarida qisman o'rganilgan hamda tadqiq etilgan.

Mazkur tadqiqotda baliqchilik tarmog'ida "baliqchilik klasteri"ni shakllantirish orqali innovatsion boshqaruv mexanizmini takomillashtirish masalalari kompleks yondashuv asosida o'rganildi. Tadqiqotning nazariy-metodologik asosini klaster yondashuvi, tizimli tahlil, institutsional va innovatsion rivojlanish konsepsiyalari tashkil etadi.

Shuningdek, xorijiy va mahalliy tajribalar o'rganilib, klaster tizimini joriy etishning ilg'or modellari qiyosiy tahlil asosida baholandi. Tadqiqot natijalarining ishonchiligi rasmiy statistik ma'lumotlar, ilmiy manbalar asosida ta'minlandi. Natijada hududiy xususiyatlarni inobatga olgan holda baliqchilik klasterlarini shakllantirish va ularning innovatsion boshqaruv mexanizmini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan xulosalar ishlab chiqildi.

Natijalar. Bugungi kunda turli mulkchilik shaklidagi baliqchilik subyektlarida yetishtirilayotgan baliq mahsulotlari hajmining yuqori natijasiga erishish maqsadida turli zamonaviy texnologiyalardan foydalanilishi va so'ngida xarajatlarning yuqoriligi natijasida yetishtirilgan baliq mahsulotlarini havzaning o'zidayoq sotib yuborishga majbur bo'lmoqdalar. Bunda birinchidan, baliq mahsulotini yetishtirishdagi harajatdan sotish narxlarini nisbatan arzon bo'lishi bilan turli mulkchilik shaklidagi baliqchilik subyektlarining daromadlari past bo'lishiga olib keladi, ikkinchidan, baliq asosan hajmi bo'yicha hisob-kitob qilinadi ularning sifatini ko'rsatkichlariga yetarli darajada e'tibor qaratilmaydi.

Baliqchilik sohasida tashkil etilgan klasterlar huquqiy jihatdan mustaqil bo'lgan turli mulkchilik shaklidagi baliqchilik subyektlarining gorizontaal va vertikal hamkorligiga asoslangan tuzilmadir. Bu tuzilma tarkibida baliq mahsulotlarini yetishtiruvchilar, yetishtirilgan baliq mahsulotlarini saqlovchi va qayta ishlovchi korxonalar, baliq urug'lari va kimyoviy o'g'itlar bilan ta'minlovchilar, ushbu sohalarda foydalaniluvchi mashina va mexanizmlarni ishlab chiqaruvchilar, yetkazib beruvchilar, texnologiya yaratuvchilari, turli infratuzilma bo'limlari, moliyaviy tashkilotlar, ilmiy-tadqiqot muassasalari va boshqalar mavjud bo'ladilar. Bu faoliyatda ular bir-birlarini to'ldiradilar hamda zarur xolatlarda bir-birlariga ko'mak beradilar. Klasterlar tarkibiy tuzilishi katta bo'lishi va egallagan hududi bo'yicha tuman yoki viloyat miqyosida ham tashkil etilishi mumkin. Baliqchilik sohasidagi klasterlarni tashkil etish mexanizmi quyidagicha bo'lishi lozim. (1-rasm)



1-rasm. Baliqchilik klasterlarini tashkil etish mexanizmi

Baliqchilik klasterlarini tashkil etish mexanizmi bo'yicha klasterlarni tashkil etishdagi asosiy mezonlarga alohida e'tibor qaratishi lozim (2-rasm). Bu orqali tashkil etilayotgan baliqchilik klasterning barcha jihatlarini

nazarda tutgan holda eng asosiy elgilangan vazifalarni bajarilishiga va muammolarning kelib chiqish sabablarini aniqlash imkoniyati yaratiladi.



2-rasm. Baliqchilik klasterlarini tashkil etishdagi asosiy mezonlar

Baliqchilik klasterlarini tashkil etish va asosiy maqsad yo'lida faoliyat olib borishi uchun soha samaradorligiga erishish hamda soha uchun eksport salohiyatini oshirishdan iborat bo'ladi. Shu bilan birga, mavjud tuzilmadagi subyektlar o'zining maqsadiga ega bo'lishi kerak. Klasterlarni tashkil etishdagi muhim vazifa har bir baliqchilik subyekting maqsadi, baliqchilik klasterlarining umumiy maqsadi bilan samarali tengma teng tarzda bog'lanishi lozim bo'ladi. Aks holda, har bir tashkilot o'z pozitsiyasidan kelib chiqib, maqsadini amalga oshirishga intiladi va baliqchilik klasterining umumiy maqsadi amalga oshirilmaganligi tufayli samarasiz faoliyat shakli bo'lib qoladi.

Shu bilan birga, tadqiqot ishimizda baliqchilik klasterlari tashkilotchilarining sohadagi tizimli muammolarni bartaraf etish va boshqarish, bozor tamoyillari asosida marketing innovatsiyalarini faol joriy etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish, shuningdek, baliqchilik klasterlarining samarali boshqaruv prinsplarini qo'llashi va faoliyat yuritishlari, yuqori pirovard natijalarga erishishda hamda boshqaruvda aniq vazifalarni belgilash va ularning tarqoq faoliyatini doimiy tartibga solish lozim bo'ladi. Shuningdek, baliqchilik klasterlarining manfaatlarini uyg'unlashtirish, tizimga aloqadaor klasterlar uchun moliyaviy imkoniyatlar yaratish hamda klaster bilan davlat o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni zamonaviy mexanizmlar asosida amalga oshirish zarur. Ushbu vazifalarni bajarishda baliqchilik klasterlarining tashkiliy tuzilmasini ishlab chiqish hamda asosiy baliq mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi klasterlarga sharoit yaratish bilan bir qatorda sohani jadal rivojlantirish hamda bir tizimda birlashtirish reja qilib olinishi lozim.

Quyidagilar baliqchilik klasterining asosiy vazifalari va faoliyat yo'nalishlari etib belgilandi:

- baliqchilik bo'yicha loyihalarning amalga oshirilishini muvofiqlashtirish, ularning huquqlari va manfaatlarini himoya qilish, davlat organlari va tashkilotlari hamda xo'jalik birlashmalari bilan o'zaro samarali hamkorlikni tashkil etish;
- hududlarning salohiyatidan kelib chiqib, istiqbolda sohani yanada rivojlantirish, xom ashyo bazasi, infratuзилma, mehnat bozori va resurslar konyunkturasidan kelib chiqqan holda joylashtirish;
- baliq mahsulotlarini yetishtirishda ilg'or innovatsion texnologiyalar hamda resurs tejamkor intensiv texnika va texnologiyalarni joriy etish, shuningdek, baliqchilik klasterlari bilan turli mulkchilik shaklidagi baliqchilik subyektlari o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solishning shaffof mexanizmini yaratish;
- baliqchilikda qo'shilgan qiymatga ega tayyor mahsulot ishlab chiqarish va eksport qilish, mazkur jarayonlarga raqamli texnologiyalarni keng joriy etish baliqchilik klasterlari faoliyatini kengaytirish bo'yicha kompleks tadbirlarni amalga oshirish;
- baliqchilik klasterlari faoliyatini rivojlantirish uchun pul-kredit siyosati bo'yicha imtiyoz va preferensiyalar qo'llash va qo'shimcha tarmoq sifatida baliqchilik turizmini rivojlantirish;
- tarmoqqa bozor mexanizmlarini keng joriy qilish, ichki va tashqi bozorda baliqchilik klasterlarining marketing tadqiqotlarini tashkil qilish, tarmoqni rivojlantirishning o'rta va uzoq muddatli dasturlarini ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etish;
- baliq yetishtirish va ishlab chiqarishini modernizatsiyalash, texnik qayta jihozlash, yuqori unumli innovatsion texnologiyalarni joriy etishda

investitsiyalarni, shu jumladan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni keng jalb etishda baliqchilik klasterlariga ko'maklashish;

- baliq mahsulotlari yetishtirish hajmini jadal rivojlantirish va barqaror faoliyat yuritishiga to'siq bo'layotgan tizimli muammolarni aniqlash va bartaraf etish, shuningdek, sohaga oid qonun hujjatlarini yanada takomillashtirish bo'yicha takliflar tayyorlash.

Baliqchilik klasterlari hamda turli mulkchilik shaklidagi baliqchilik subyektlarini bir sohada birlashtirish, ularning asosiy muammolarini o'rganish, ularni bartaraf etish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Muhokama. Tadqiqot ishimizda baliqchilik klasterlarini boshqaruv prinsplarini qay holatda ekanligi, boshqaruvdagi taktik va asosiy muammolarni kelib chiqish sabablari ularni bartaraf etish yo'llarini ham alohida tadqiq etishni taqazo etadi. Bugungi kunda baliqchilik klasterlarini boshqaruv tuzilmasi hamda boshqaruv usullari o'rganilganda baliqchilik klasterlarida aniq bir boshqaruv tuzilmasining shakllanmaganligi boshqaruv usullarini qo'llashda qator kamchiliklarning borligi sohaga boshqaruv tizimi bo'yicha ham alohida e'tibor berilishi lozimligini ko'rsatib beradi. Baliqchilik klasterlarini boshqaruv tuzilmasini joriy etilishi natijasida sohani rivojlantirish mexanizmi majmuaviy xarakterga ega bo'ladi.

Baliqchilik klasterlarini boshqarishda muhim funksiyalaridan biri hisoblangan rejalashtirishning asosi va eng muhim bosqichlaridan biri klasterlarning maqsadlarini tanlashdir. Shuni ta'kidlab o'tish zarurki, klasterlar ko'p bo'g'inli tizimlarda keng ifodalangan maqsadlarga ega bo'ladi.

Baliqchilik klasterining umumiy maqsadi turli mulkchilik shaklidagi baliqchilik subyektlarining asosiy vazifasi sifatida belgilanishi lozim bo'ladi. Vazifa klasterning vaziyatini batafsil ifodalaydi hamda har bir tashkiliy bosqichlarda maqsad va strategiyalarga erishish yo'llarini belgilab beradi.

Shu sababli, baliqchilik klasterining vazifasi quyidagilarda ifodalinishi lozim:

- asosiy xizmat va mahsulotlar, bozorlar va texnologiyalar nuqtai nazaridan doimiy tahlil olib borish;
 - klasterlar turli mulkchilik shaklidagi baliqchilik subyektlarning ish tamoyillarini bir-biriga bog'laydigan va tashqi muhitning ta'sirini nazorat qilib borish;
 - baliqchilik klasterlari va turli mulkchilik shaklidagi baliqchilik subyektlarini integratsiyasini tizimli tashkil etish va boshqaruv uslubini belgilash.
- Baliqchilik klasterlarining boshqaruv usulida asosiy maqsadlariga mos ravishda ularning tuzilmasi tuziladi. Hamma klasterlar uchun bir xil bo'lgan tashkiliy tuzilmani yaratish mumkin emas. Har bir klaster o'z imkoniyatidan kelib chiqqan holda o'z tarkibiy tuzilmasini tuzadi va har bir bo'lim va tuzilmalar klaster maqsadini amalga oshirishga hissa qo'shadi. Shu boisdan, klasterlarning samarali faoliyatini ta'minlash yo'lida zarur bo'lgan hollarda klasterlar maqsadiga hissa qo'shishi mumkin bo'lgan yangi tuzilmaviy bo'limlar tashkil etishi mumkin.
- Baliqchilik klasterlarini boshqarish mexanizmini takomillashtirishda klasterlarni tashkiliy-iqtisodiy mexanizmiga ham alohida e'tibor qaratish lozim bo'ladi. Shu boisdan, klasterlarning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini rivojlantirish quyidagi yo'nalishlarda olib borilishi maqsadga muvofiqdir:
- klaster faoliyatiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va ularning

ta'sir doirasini belgilash;

- klasterlar faoliyatini joriy va uzoq bo'lgan muddatlarga rejalashtirishni amalga oshirish, barcha qatnashchilar o'rtasidagi eng mutanosib proporsiyalarni, munosabatlarni o'rnatish. Bunda ularning to'la xo'jalik va huquqiy mustaqilligi saqlanib qolishiga erishish;
- klaster tarkibiga kiruvchi bo'linmalar va tashkilotlar o'rtasida o'zaro hisob-kitoblarni to'g'ri yo'lga qo'yish. Bunda ularning haquqlari poymol qilinishiga qo'l qo'ymaslik, aksincha ularni himoya qilish, qo'llab-quvvatlash choralarini ko'rish;
- baliqchilik sohasidagi klasterlarni rivojlanishini ta'minlash uchun

o'zaro samarali taqsimot munosabatlarini o'rnatish. Olingan mablag'larni taqsimlashda faqat klasterni rivojlantirish istiqbollarini hisobga olish. Shu bilan birgalikda, klaster tarkibidagi iqtisodiy subyektlarning qiziqishlarini ham inobatga olish;

- baliqchilik klasteridagi turli mulkchilik shaklidagi baliqchilik subyektlari o'rtasidagi shartnomaviy munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'yish. Bunda har bir tomonning qo'shadigan hissasini va rivojlanish darajasini hisobga olish.

Shu bilan bir qatorda baliqchilik klasterlarini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy, ijtimoiy jihatlariga ham alohida e'tibor qaratish lozim (1-jadval).

1-jadval.

Baliqchilik klasterlarini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy asoslarining o'ziga xos jihatlari

TASHKILIY	IQTISODIY	IJTIMOY
<p>-aholining sifatli baliq mahsulotlariga bo'lgan talabani to'la qondirish;</p> <p>-baliq mahsulotlarini qayta ishlash natijasidan ulardan turli xildagi konserva mahsulotlari ishlab chiqarish va ichki iste'moldan tashqari eksport hajmini oshirish;</p> <p>-qishloq hududlarida baliqchilikka ixtisoslashgan sanoat korxonalarini tashkil etish hisobidan yangi ish o'rinlarini yaratish va aholini bo'sh turgan qatlamini bandligini ta'minlash;</p> <p>-baliqchilik sohasida faoliyat olib boruvchi turli mulkchilik shaklidagi subyektlar o'rtasidagi iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlarni to'liq tartibga solish;</p> <p>-baliq mahsulotlarini yetishtirishda qiymat zanjirini yaratish va zamonaviy boshqaruv usullaridan keng foydalanish;</p>	<p>-baliqchilik sohasida faoliyat yuritayotgan turli mulkchilik shaklidagi baliqchilik subyektlarining iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlarini oshirishga imkoniyat yaratish;</p> <p>-baliq yetishtirishda resurs tejamkor va intensiv texnologiyalardan keng qamrovli usulda foydalanishni yo'lga qo'yish;</p> <p>-baliqchilik mahsulotlarini qayta ishlashni tashkil etish orqali tirik baliq sotishga nisbatan 20-25 baravardan ortiq daromad ko'rishga erishish;</p> <p>-bank va boshqa moliya tashkilotlar bilan pul-kredit siyosatini to'g'ri tashkil etish va kreditorlik qarzlarni qaytarishda qo'shimcha imkoniyatlarni yaratish;</p> <p>-aholi daromadini oshirish va moliyaviy rag'batlantirish mexanizmini tashkil etish;</p> <p>-qayta ishlangan baliq mahsulotlarini eksport qilish natijasida klasterlarda valyuta tushumini oshirish va h.k.</p>	<p>-aholining sanitar-gigiena talablariga to'la javob bera oladigan mahsulotlarni ishlab chiqarish;</p> <p>-qishloq hududlarida baliqchilikka moslashtirilgan agroturizm zonalarini tashkil etish va aholining yashash darajasini tubdan o'zgartirish;</p> <p>-ijtimoiy qo'llab quvvatlash orqali aholining nochor qatlamini moddiy rag'batlantirish va x.k.</p>

Yuqoridagi ishlarni amalga oshirishda klasterlar uchun yagona raqamlashtirilgan platformasini yaratish hamda klasterlar faoliyatini tahlil qilish, mahsulot sotish va sotib olish, yetkazib berish xizmatini joriy qilish hamda hamkorlik aloqalarini bir tizimga birlashtirish ta'minlash zarur. Shu bois, har bir klaster o'z maqsadini belgilashi umumiy maqsadni to'ldirishga xizmat qilishi ta'minlanadi. Baliqchilik klasterlari va xo'jaliklar o'rtasidagi mahsulot yetishtirish, saqlash, qayta ishlash hamda iqtisodiy ko'rsatkichlarini tahlil qiladigan bo'lsak, bunda turli mulkchilik shaklidagi baliqchilik subyektlarining ulushning yuqoriligi bilan bir qatorda doimiy ish jarayonining ta'minlanganligi alohida e'tiborga olish zarur.

Xulosa. Ma'lumki, turli mulkchilik shaklidagi baliqchilik subyektlari ishlab chiqarishi yaqqol ifodalangan mavsumiy xarakterga ega bo'lib, unda ish davri yil davomida mehnat resurslaridan bir tekisda foydalanmaslik natijasida ishlab chiqarish davriga mos kelmaydi, ayrim paytlarda ishchi kuchining yetishmasligi, boshqa paytlarda esa, ortiqchaligi kuzatiladi. Bundan ayniqsa, tovar baliq shakllantirish davrida ishchi kuchi kamroq talab qilinadigan, yetishtirish davrida esa uning yetishmasligi seziladigan xo'jaliklar ko'proq aziyat chekadi. Shunga o'xshash holatlarda intensiv va innovatsion texnologiyalarni qo'llash hisobiga ishchi kuchiga ehtiyoj va undan foydalanishda o'zgarishlar nisbatan kichik bo'lishi kuzatiladi.

Tadqiqotimiz obyekti sifatida o'rganilayotgan Qashqadaryo viloyatidagi baliqchilik klasterlari faoliyati yuzasidan, quyidagicha xulosalarga kelindi:

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Beglayev U.X. Baliqchilik xo'jaliklarini rivojlantirish va boshqarish. // Monografiya. – T.: "Navro'z", 2020, – 131 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-maydagi «Baliqchilik tarmog'ini boshqarish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi PQ-2939-sonli qarori // "Xalq so'zi" gazetasi, 2017-yil 3-maydagi 87 (6781)-soni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar Strategiyasi" to'g'risidagi PF №4947-sonli Farmoni // "Xalq so'zi" gazetasi, 2017-yil 8-fevraldagi 57 (5923)-soni.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 3-fevraldagi "2018-yilda baliq mahsulotlari yetishtirish hajmini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PQ-3505-sonli qarori. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 06.02.2018 y., № 07/18/3505/0656 soni.

- baliqchilik klasterlarida yetishtirilgan baliq mahsulotlarining tovarlilik darajasini oshirish;

- baliqchilik mahsulotlarini yetishtirish hajmini oshirish va sifat talablariga muvofiq standartlashtirish hamda sertifikatlash jarayonlariga e'tibor qaratish;

- baliqchilik klasterlarini boshqarishda zamonaviy menejment usullari va innovatsiyalardan foydalanishni tadbir etish;

- baliqchilik klasterlarini rivojlanishi va samaradorligini oshirish lozim bo'ladi.

Baliqchilik klasterlarida o'zaro munosabatlarni tashkil etishda har bir qatnashchining holatini baholash va rivojlanishini hisobga olish zarur bo'ladi. Bu holatga erishish uchun quyidagi yo'nalishlarni amalga oshirilishi zarur:

- viloyatda baliqchilik sohasini rivojlanish holatini baholash va istiqboldagi natijalarga erishish an'anasi hisobga olgan holda tashkil etish;

- klasterni tashkil etishdan asosiy maqsadini aniq belgilash va barcha qatnashchilar maqsadlarini shu asosiy maqsadga moslashtirish;

- har bir qatnashchi va turli mulkchilik shaklidagi baliqchilik subyektlari hamkorlikda majmuaning rivojlanish modelini ishlab chiqish va undagi mezonlarni o'rnatish;

- baliqchilik klasterlarining faoliyatini atrof-muhitga va ekologiyaga ta'sirini inobatga olish. Zarur hollarda atrof-muhitning yaxshilanishiga ta'sirini oshirish bo'yicha tadbirlar tuzish.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 6-apreldagi "Baliqchilik tarmog'ini jadal rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PQ-3657-son qarori. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 07.04.2018 y., 07/18/3657/1027-soni.

6. Beglaev U.X. Baliqchilik xo'jaliklarini barqaror rivojlantirishda Vetnam tajribasidan foydalanish. // "Innovatsion va raqamli iqtisodiyot sharoitida xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish muammolari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjumani. Materiallar to'plami SamISI. 2020 y. 236-240- betlar.

7. Shoximardonov D.R. Mintaqalarda baliqchilikni rivojlantirish – T.: 2010

8. Shohimardonov D, Muxtorov A va b. Fermer xo'jaliklarida noqishloq xo'jalik (baliqchilik) faoliyatini rivojlantirish (amaliy qo'llanma) – T.: QHITI, 2014. – 60 b.

9. Ergashev R.X. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti. Darslik. – T.: Moliya-iqtisod, 2018. – 394 b